

ASAKA TUMANI SUG'ORMA DEHQONCHILIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK JIHLTLARI

¹Kamolova Durdona Shamsiddin qizi, ²Sarikulov Mirkomil Olimovich

¹Andijon davlat Pedagogika instituti 2-bosqich talabasi, ²Andijon davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti o`qituvchisi
Andijon shahar Do`stlik ko`chasi 4-uy

Annotatsiya: Ushbu maqolada Asaka tumanining joylashgan geografik o`rni hududiy chegara va uning uzunliklari, relyefi va iqlimi haqida umumiy ma'lumot beriladi. Bundan tashqari mavzu doirasidagi tuman suv resurslarining sug'orma dehqonchilikdagi ahamiyatli jihatlari, ulardan oqilona foydalanish chora tadbirlari to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan. Sug'orib dehqonchilik qilinadigan ekin maydonlarini kengaytirish, gidrotexnik inshootlar samaradorligini oshirish va suv resurslaridan foydalanishning ekologik jihatlari to'g'risida ham fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Resurs, melioratsiya, irrigatsiya, Agrosanoat majmui, ekalogiya, gidrotexnik inshoot, kanal, iqlim, relyef.

Abstract: This article provides general information about the geographical location of Asaka district, its territorial boundaries and its longitudes, relief and climate. In addition, information is provided on the important aspects of district water resources in irrigated agriculture, measures for their rational use. The expansion of irrigated farming areas, the improvement of the efficiency of hydrotechnical facilities, and the ecological aspects of the use of water resources were also discussed.

Key words: Resource, land reclamation, irrigation, Agro-industrial complex, ecology, hydrotechnical construction, channel, climate, relief.

Asosiy qism: Andijon shahridan 16 km janubiy-g'arbda joylashgan bo`lib, Marg'ilon va Farg'ona shaharlariga olib boruvchi katta avtomagistral yo'l ustida, uncha katta bo'lmagan, ammo ko'm-ko'k daraxtlarga burkangan go'zal Asaka tumani joylashgan. Tuman adirlar yoqalab oqayotgan Shahrixonsoy sohillarida, dengiz sathidan 495 metr balandlikda joylashgan. Uning yon atrofni paxta dalalari, yonbag'irlarini bog'-rog'lar qoplagan adirlar o'rab turadi. Asaka tumani ma'muriy markaz ham hisoblanadi. Tuman Andijon viloyati, Shahrixon, Marhamat, Xo'jaobod, Oltinko'l tumanlari va Farg'ona viloyatining Quva tumani bilan chegaradosh.

Xududi (yer maydoni)	- 283,4 kv.km
Chegara uzunligi	- 80 km
-Farg'ona viloyati bilan	- 14 km
-Marxamat tumani bilan	- 16 km
-Oltinko'l tumani bilan	- 9 km

- Shaxrixon tumani bilan - 24 km**
- Buloqboshi tumani bilan - 7 km**
- Andijon tumani bilan - 10 km**

Relyefi. Tuman relyefi notekis bo`lib, tekislik, jarlik, qir va baland adirlardan iborat. Tuproqlari, asosan, bo`z tuproq, adirlari arziq tuproq bo`lib, sug`orib dehqonchilik qilish uchun qulay hisoblanadi. Shahrixonsoy o`zani tumanni ikkiga bo`luvchi shartli chegara hisoblanib, uning chap sohilidagi qismi Yuqori Asaka, o`ng sohili esa Quyi Asaka deb yuritiladi.

Iqlimi. Iqlim sharoiti jihatdan Asaka Farg`ona vodiysining boshqa tumanlaridan ham farq qiladi. Yillik yog`in miqdori 256mm bo`lib, yog`in asosan yilning qish va bahor oylariga to`g`ri keladi. Ko`p yillik o`rtacha havo harorati Asakada +12,9 gradusni tashkil qiladi. Yozning eng yuqori harorati + 45 gradusgacha ko`tarilishi mumkin. Qishning eng sovuq kunlari – 28,2 gradusgacha pasayadi. Binobarin, havo haroratini yillik tebranishi 73,2 gradusni tashkil etib, yoz bu yerda quruq va qisqa, ya`ni iyul oyining o`rtacha harorati +26 gradus. Tog`larda Shahrixonsoy vodiysi bo`ylab oqib tushadigon salqin havo oqimi, ayniqsa tunda jazirama issiqni qisman pasaytiradi. Qish bu yerda mo`tadil va qisqa. Yanvar oyining harorati +2,9 gradusga tengdir. Asaka tumani iqlimi Markaziy Osiyo iqlimiga mos bo`lib, quruq va keskin o`zgaruvchan iqlim hisoblanadi.

Suv resurslari. Asaka suvga serob maskandir, shahar oralab ulkan Shahrixonsoy oqib o`tadi. Tumanning shimoliy va shimoliy-sharqiy qismida Katta Farg`ona kanali, Shahrixonsoy, janubida, Oqbo`yra va Aravonsoylar oqib o`tadi. Bundan tashqari tumanda Asaka tashlamasi, Obihayot sug`orish mashina kanali bor.

Shahrixonsoy - Andijon va Farg`ona iloyatlaridagi magistral kanal. Kampirravot gidrolizidan boshlanadi. 1887-yilda qurilgan bo`lib, umumiy uzunligi 120 km ni tashkil etadi.. Boshlanish qismida suv o`tkazish imkoniyati 110 m³/s; Katta Farg`ona kanali bilan kesishgan joyida 30 m³/s. Asaka tumani yonida 2 elektr stansiya kanal suvi (40 m³/s) bilan ishlaydi. Kanaldagi suv 8 yirik gidrolizlar orqali taqsimlanadi.



Asaka tumanidagi Shaxrixonsoy.

1976-yildan boshlab rekonstruksiya ishlari olib borilmoqda. Kanal sel, Oqbu-
ra va Aravon daryolaridagi toshqin hamda qishki tashlama suvlarni qabul qilishga xizmat qiladi. Trassaning 62 km da Aravonsoy daryosi bilan qo‘shilib ketadi va shu yerdan daryoning qadimiy o‘zanida oqadi. Janubiy Farg‘ona kanali bilan birgalikda Andijon, Farg‘ona viloyatlari va Qirg‘izistonning O‘sh viloyati (127,5 ming ga) yerlarini sug‘oradi. Andijon viloyatida Katta Farg‘ona kanali bilan kesishgan joyigacha faqat shahrining o‘zidan 68 ming ga yer sugoriladi. Asaka tumanida jami ekin maydoni 11070 gektar. Shundan paxta 5995 gektar, bug‘doy 3902 gektar, sabzavot 47 gektarga ekiladi. Bundan tashqari 1114 gektar yem-xashak ekinlari, me‘va va tokzorlar qariyb 2000 gektarni ishg‘ol etadi.

Qolaversa tumanda shirkat xo‘jaliklari tashkil etilgan bo‘lib, ular quyidagilar:

1. Yangi hayot.
2. Navbaxor.
3. O‘zbekiston.
4. G‘alaba.
5. O‘zbekiston mustaqilligi.
6. Navruz.
7. Asaka.
8. G‘ulom Yoqubov nomidagi.

Yuqoridagi shirkat xo‘jaliklari sug‘orishda asosan suv resurslarini Shaxrixonsoydan oladi. Suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida tumanda bir qancha gidrotexnik inshootlar qurilgan. Ushbu gidrotexnik inshootlar suvni tartibga

olishda sug'orib dehqonchilik qilishda ham ahamiyatli.



1-rasm. Shahrixonsoydagi GKSX- 01875 gidrotexnik inshoot.



2-rasm. Shahrixonsoydagi ULS- 347122 suv taqsimlash inshooti

Joriy yilning 29-avgust kuni Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasiga qarashli, Asaka tumanida joylashgan "Sohibkor" nasos stansiyasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish chora tadbirlari o'tkazildi.

Xulosa va takliflar: Ushbu maqoladan shuni xulosa qilish mumkinki Asaka tumani suv resurslariga juda boy. Lekin adirli hududlar nisbatan ko'p bo'lganligi

sababli bunday hududlarga suv resurslarini yo'naltirish qiyin. Shuni inobatga olgan holda o'sha hududlarda sug'orib dehqonchilik qilish maqsadga muvofiq. An'anaviy sug'orish usullaridan voz kechgan holda suv tejovchi texnologiyalarini qo'llashni yanada kengaytirish zarur. Bundan tashqari tumanda ushbu sohaga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish, mazkur yo'nalishdagi qonun va qonunosti hujatlarni qayta ko'rib chiqish, ularni takomillashtirish kerakligi to'g'risida ham takliflar bildiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ekologiya huquqi. Darslik / muharrir: M.B. Usmonov.- Toshkent TDYI, 2006-361h.
2. Rajabov N.SH. Ekalogik me'yorlashning huquqiy muammolari: muharrir: M.B. Usmonov.- Toshkent TDYI, 2007-142-b.
3. Xolmo'minov J.T. Ekalogiya va qonun -Toshkent: "Adolat". 2000-352 b.
4. [https:// lex.. uz](https://lex..uz).
5. [https:// uzsuv. Uz](https://uzsuv.Uz).
6. Xusanxo'jayev .Z.X. "Gidrotexnik inshootlar"-O'qituvchi nashriyoti -Toshkent-1958.